

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TA'LIMY FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Raxmonova Sojida Muxammadovna

Buxoro davlat pedagogika institute Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Narzullayeva Xurshida Shavkatovna

4-MT-2023 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilindi. Innovatsion yondashuvlarning mazmun-mohiyati, ularning ta'lim sifati va bolalar rivojlanishiga ta'siri, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirish, pedagoglarning innovatsion kompetentligini oshirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, maktabgacha ta'lim, pedagogik texnologiya, rivojlantiruvchi muhit, kompetentlik, ta'lim samaradorligi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion ta'limiy faoliyatni tashkil etish individual yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki biz bilamizki, aynan maktabgacha yosh davri juda muhim davr, shaxs kamolotining poydevori bo'lib, bolalarning intellektual, ijtimoiy-psixologik va axloqiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar, metodlar asosida tashkil etish, ta'limiy faoliyatlarni samarali yo'lga qo'yish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Innovatsion ta'limiy faoliyat - ta'lim jarayoniga yangicha mazmun, shakl va metodlarni joriy etish, pedagogik jarayonni samaradorlikka yo'naltirish, bolalarning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar tushuniladi. Bunday faoliyatni samarali tashkil etish pedagoglardan yuqori kasbiy mahorat, kreativlik va doimiy o'z ustida ishlashni talab etadi. Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsiya tushunchasi ta'lim jarayoniga yangilik kiritish, mavjud metod va shakllarni takomillashtirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsadli faoliyatni anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari innovatsion yondashuvlarni qo'llashni taqozo etadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning tafakkuri, nutqi, tasavvuri va ijtimoiy ko'nikmalari intensiv rivojlanadigan bosqich sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli ta'lim jarayonini rivojlantiruvchi muhit asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyat bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash, mustaqil fikrlashini shakllantirish va ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- STEAM texnologiyalarini joriy etish;
- didaktik vositalar, didaktik imkoniyatlarni yaratish;
- rivojlantiruvchi o'yin texnologiyalaridan foydalanish.

Bugungi kunda ta'limiy faoliyatda keng qo'llanilib kelayotgan STEAM texnologiyasi bolalarda mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mashg'ulotlarda raqamli vositalar orqali multimedia va multistudiyali mashg'ulotlarni tashkil etish bolalarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish uchun quyidagi mexanizmlar muhim hisoblanadi:

1. Pedagoglarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish;
2. Ta'lim muhitini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash;
3. Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash;
4. Muvaffaqiyatli rag'batlantirishni yo'lga qo'yish.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash mezonlari

Innovatsion ta'limiy faoliyat samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- bolalarning kognitiv faolligi va mustaqil fikrlash darajasi;
- nutq va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi;
- ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari;
- ijodiy faoliyat natijalari;
- pedagogik jarayonning sifat ko'rsatkichlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlar samarali qo'llanilganda bolalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi va mashg'ulotlarda passiv tinglovchi emas, faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshiradi hamda bolalarni keyingi faoliyatini muvaffaqiyatli kechishi, maktab ta'limiga sifatli tayyorlash imkonini beradi.

Innovatsion ta'limiy faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishga bog'liq. Bunday muhit bolani mustaqil izlanishga undaydi, tajriba qilish imkonini beradi va o'z fikrini erkin ifodalashga sharoit yaratadi. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, kichik guruhlarda ishlash, syujetli rolli o'yinlar tashkil etish va tajribaviy mashg'ulotlar o'tkazish bolalarning mantiqiy fikrlashi hamda ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada bola tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllanadi.

Shuningdek, innovatsion faoliyat pedagogning kasbiy pozitsiyasini ham o'zgartiradi. An'anaviy yondashuvda pedagog asosiy axborot manbai bo'lsa, innovatsion modelda u jarayonni boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va hamkorlikni tashkil etuvchi sub'yektga aylanadi. Bu esa pedagogdan kreativlik, moslashuvchanlik va refleksiv tahlil ko'nikmalarini talab etadi. Pedagog o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi, yangi metodlarni sinab ko'rishi va natijalarni baholashi zarur.

Innovatsion faoliyat samaradorligini ta'minlashda monitoring va tahlil jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bolalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, ularning kognitiv, nutqiy va ijtimoiy ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni belgilab borish, innovatsion metodlarning

natijadorligini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, innovatsion ta'limiy faoliyatning samaradorligi ota-onalar bilan hamkorlik darajasiga ham bog'liq.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi uzviy aloqa bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etish, seminar va treninglar tashkil etish, maslahatlar berish orqali innovatsion yondashuvlarning ijobiy natijalariga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'limiy faoliyatni samarali tashkil etish ta'lim sifatini oshiradi, bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ularni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashga xizmat qiladi.

Innovatsion jarayonning izchil va tizimli amalga oshirilishi esa maktabgacha ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. M.X. Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik. T.: O'zbekistan faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
2. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
3. O'Q. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: 2006 y. -264 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
8. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: “Iqtisod-moliya” 2009 y. – 240 bet.
9. B.X. Xodjaev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2017 y. -434 bet.
10. Raxmonova Sojida Muxammadovna. “Preparing the graduate students of primary education for innovative professional ACTIVITY”. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. Pages 288-293
11. Raxmonova Sojida Muxammadovna. “Practical features of preparing primary education students for professional activity” science and innovation in the education system, 2(9), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153>. 31.08.2023 y
12. Рахмонова Сожида Мухаммадовна. “Педагогико-психологические особенности подготовки учителей начальных классов к инновационной профессиональной деятельности. . Innovative research in the modern world: theory and practice, 2(23), 92–94с. 11(39)-son 31.08.2023 y

13. S.M.Raxmonova Didactic possibilities of improving the methodology for preparing future educators of the preschool educational organization for innovative professional activities. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

14. S.M. Raxmonova Мактабгача таълим ёшидаги болаларга таълим беришда компетенциявий ёндашув. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал 5/1 2022 y.101-105 bet

15. S.M. Raxmonova Bo'lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'z-o'zini shakllantirish va mukammallashtirishga o'rgatish. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал. 3/4. 2023 y. 141-146